

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“SOLIQLAR VA SUG'URTA ISHI” KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.226.11(575.1)

UMAROV DOSTON UMAR O'G'LI

**O'zbekiston Respublikasining zamonaviy rivojlanish sharoitida jismoniy
shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash muammolari**

**60410200 - “Soliq va soliqqa tortish”
mutaxassisligi bo'yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
i.f.d., dots. To'xsanov Q.N.

Toshkent-2023

Magistrlk dissertatsiya ishi “Soliqlar va sug’urta ishi ” kafedrasida dastlabki himoyadan o’tgan.

_____ -sonli bayonnoma “ _____ ” _____ 2023 yil.

Kafedra mudiri: i.f.d., prof. Tuxliyev B.K.




imzo

23.05.2023

sana

Ilmiy rahbar: i.f.d., dots. To`xsanov Q.N.



imzo

22.05.2023

sana

Talaba: Umarov Doston Umar o`g`li



imzo

22.05.2023

sana

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarda soliqlarning barqaror tushumini ta'minlash, soliq yukini izchil kamaytirish negizida aholi real daromadlarini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga pozitiv ta'sir etuvchi o'zaro uyg'unlashgan soliq tizimini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Hozirda aholining yanada to'liq va samarali bandligini ta'minlash, daromadlarini yanada oshirish, mulki va aktivlari qiymatining muttasil oshib borishini kafolatlash ahamiyatining o'sganligi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Aholining hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to'lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirishimiz zarur. Eng kam oylik ish haqi miqdorini belgilash tartibini qayta ko'rib chiqish, soliq va boshqa to'lovlarning eng kam ish haqi miqdori bilan bog'liq bo'lishiga barham berish kerak. Bu masalalarni hal qilish uchun respublikamizda soliq yukini aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida tekis taqsimlash, mavjud imtiyozlarning samaradorligini baholash va optimallashtirish, aholining real daromadlarini oshirishda soliq tizimining muhim elementi hisoblangan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: *Soliq tizimi, soliq siyosati, soliq ma'muriyatchiligi, jismoniy shaxslar, jami daromad, daromad solig'i, soliqqa tortish, soliq stavkasi, soliq summasi, soliqni to'lash tartibi.*

SUMMARY

In the reforms carried out in the system of taxation of individuals in our country, attention is paid to the formation of a mutually harmonized tax system that positively affects economic growth by increasing the real income of the population on the basis of ensuring stable income from taxes, consistently reducing the tax burden. Currently, the increased importance of ensuring more full and effective employment of the population, further increasing their income, and guaranteeing a constant increase in the value of their property and assets shows the need to improve the practice of taxation of the income of individuals. In order to raise the standard of living of the population, it is necessary to form a system of decent payment for labor and increase the real income of the population. It is necessary to revise the procedure for setting the minimum monthly wage, to stop the connection of taxes and other payments with the minimum wage. In order to solve these issues, it is necessary to evenly distribute the tax burden among the social strata of the population in our republic, to evaluate and optimize the effectiveness of existing benefits, and to improve the mechanism of taxation of individuals, which is considered an important element of the tax system in increasing the real income of the population.

Key words: Tax system, tax policy, tax administration, individuals, total income, income tax, taxation, tax rate, tax amount, tax payment procedure.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
Kirish.....	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	9
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	11
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	12
Tadqiqotning obyekti va predmeti.....	13
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	13
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	15
1.1. Kirish.....	15
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharxi.....	15
1.3. Mavzuga oid nazariy-huquqiy hujjatlar sharxi.....	21
Qisqacha xulosa.....	25
II BOB. METODOLOGIYA.....	27
2.1. Tadqiqot tizimi.....	27
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	27
2.3. Tahlil uchun qo'lanilgan usullar.....	28
2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	29
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	30
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	33
3.1. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi hozirgi zamon amaliyotining tahlili.....	33
3.2. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda soliqqa tortishning bazaviy komponentlarini baholash mexanizmi.....	40
3.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini mexanizmini takomillashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanish istiqbollari.....	45
3.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i bo'yicha soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish istiqbollari.....	53
3.5. Tahlillardan olingan qisqacha xulosalar.....	62
Xulosa.....	64
Foydalanilgan adabiyotlar.....	68

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Jahonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «...rivojlangan mamlakatlarda esa hamon aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlik va minimal yashash standartidan past darajada yashovchi aholi qatlamining yuqori salmog'i, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimining progressiv mexanizmini yanada takomillashtirishni talab etmoqda». Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi amal qilishida yechilishi lozim bo'lgan muammolarning saqlanib qolayotganligi ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilishini taqozo etmoqda.

Jahonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Aholi turmush farovonligini ta'minlashning fiskal mexanizmi, daromadlarning chegaraviy nafililigi asosidagi soliq yukini aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida optimal taqsimlash muammolari, virtual makonga asoslangan biznesdan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish tizimining tashkiliy asoslari, yalpi iste'mol talabini soliq mexanizmi orqali rag'batlantirish, jamg'armalar va ularni investitsiyalarga transformatsiyalashga soliq tizimining ta'sirini takomillashtirish, kapitallarning transmilliy harakatlanishini individual daromad solig'i mexanizmi orqali tartibga solish bilan bog'liq muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ushbu izlanishlarda iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari dolzarblik kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, aholi farovonligini oshirish maqsadida joriy yilda ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori o'tgan yillarga nisbatan sezilarli ravishda oshirildi. Xususan, pedagog xodimlarning ish haqi so'nggi 10 yilda birinchi marta 50 foizgacha ko'paytirildi. Ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli, aholining real umumiy daromadlari 2017 yilga nisbatan 12 foizga oshdi. "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar doirasida 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2 ming 600